# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma’lumot*

*2023- yil yanvar-mart*

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma’lumotlar** jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vosita-sidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma’lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyat-ga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqat-lanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko‘rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalar soni **2861** tani tashkil etib, 2022- yil 1- aprelga nisbatan 12 taga oshgan (o‘sish sur’ati 100,4 %). Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 88 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2773 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig‘ilgan ma’lumotlar, chakana savdo ko‘rsatgichlariga kiritilgan.

## Chakana savdo aylanmasining asosiy ko‘rsatkichlari

| | Tarkibiy qism | O‘sish sur’ati |
|---|---|---|
| Yirik korxonalar | 4,5% | 147,4% |
| Kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik | 95,5% | 102,7% |
| *shu jumladan:* Uyushmagan savdo | 13,0% | 111,3% |



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-mart oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **1968,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **104,1** % ga yetdi.

Shumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **89,2** mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati **147,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining to-var aylanmasi **1879,1** mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati **102,7** %), shundan uyushma-gan savdo tovar aylanmasi **256,0** mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati **111,3** %) tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste’mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

| | Jami mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So‘m | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **1 968,3** | **104,1** | **89,2** | **147,4** | **1 879,1** | **102,7** |
| Nukus shahri | 386,6 | 113,7 | 18,3 | 102,7 | 368,4 | 114,3 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Amudaryo | 169,9 | 102,8 | 3,9 | 85,4 | 166,0 | 103,3 |
| Beruniy | 120,8 | 100,4 | 9,4 | 145,2 | 111,3 | 97,9 |
| Bo‘zatov | 23,4 | 93,6 | 0,1 | 80,0 | 23,3 | 93,6 |
| Qorao‘zak | 89,8 | 93,6 | 0,3 | 120,9 | 89,5 | 93,5 |
| Kegeyli | 55,4 | 94,2 | 0,3 | 71,5 | 55,1 | 94,4 |
| Qo‘ng‘irot | 149,6 | 99,4 | 3,6 | 69,9 | 146,0 | 100,5 |
| Qonliko‘l | 70,6 | 101,3 | 0,1 | 37,0 | 70,5 | 101,5 |
| Mo‘ynoq | 21,0 | 100,3 | 0,1 | 62,9 | 20,9 | 100,6 |
| Nukus | 58,2 | 99,7 | 0,2 | 55,7 | 57,9 | 100,0 |
| Taxiatosh | 86,1 | 137,5 | 35,0 | 594,9 | 51,1 | 90,1 |
| Taxtako‘pir | 66,1 | 100,4 | 0,2 | 71,4 | 65,9 | 100,5 |
| To‘rtko‘l | 227,3 | 103,3 | 8,6 | 104,8 | 218,8 | 103,2 |
| Xo‘jayli | 179,6 | 101,8 | 3,2 | 75,6 | 176,4 | 102,4 |
| Chimboy | 100,0 | 101,7 | 2,5 | 92,6 | 97,6 | 101,9 |
| Shumanay | 43,9 | 100,6 | 0,1 | 54,0 | 43,7 | 100,9 |
| Ellikqal’a | 120,0 | 101,0 | 3,4 | 96,9 | 116,7 | 101,2 |

2023- yilning yanvar-mart oylarida 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan respublikaning Nukus shahri (113,7 %), Taxiatosh (137,5 %), To‘rtko‘l (103,3 %) va Amudaryo (102,8 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o‘sish sur’atlari qayd etildi.

# TUMAN KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Chakana savdo aylanmasining o‘zgarish sur’atlari,
foizda




2023- yilning yanvar-mart oylarida o‘sish sur’ati 104,1 % ni tashkil qildi.

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra, **1879,1** mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **102,7** % ga oʻsdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **95,5** % ni tashkil etdi.

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori oʻsish sur'atga ega hududlar*(foizda)*




## Yirik korxonalarning eng yuqori oʻsish sur'atiga ega hududlar *(foizda)*




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **147,4** % ga oʻsdi va **89,2** mlrd. soʻmni tshkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **4,5** % ulushiga toʻgʻri keldi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI,

*(foizda)*




Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,7 %), Bo'zatov (99,7 %) va Qonliko'l (99,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **4,5** % ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiatosh (40,6 %), Beruniy (7,8%), Nukus shahri (4,7%) va To'rtko'l (3,8%) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

| | Hajmi, ming. so'm | O'sish sur'ati, *foizda* |
|---|---|---|
| **Qoraqalpog'iston Respublikasi** | **994,6** | **102,7** |
| Nukus shahri | 1 154,2 | 111,9 |
| tumanlar: | | |
| Amudaryo | 812,8 | 101,0 |
| Beruniy | 599,1 | 98,5 |
| Bo'zatov | 1 067,9 | 93,2 |
| Qorao'zak | 1 660,4 | 92,9 |
| Kegeyli | 745,9 | 93,5 |
| Qo'ng'irot | 1 110,3 | 98,2 |
| Qonliko'l | 1 326,8 | 99,9 |
| Mo'ynoq | 626,1 | 99,1 |
| Nukus | 1 097,4 | 97,8 |
| Taxiatosh | 1 128,6 | 136,3 |
| Taxtako'pir | 1 698,7 | 104,8 |
| To'rtko'l | 1 009,5 | 101,5 |
| Xo'jayli | 1 409,8 | 100,5 |
| Chimboy | 869,2 | 100,8 |
| Shumanay | 760,6 | 99,5 |
| Ellikqal'a | 714,1 | 99,1 |

2023- yilning yanvar-mart holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **994,6** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **102,7** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Taxtako'pir (**1698,7** ming. so'm), Qorao'zak (**1660,4** ming. so'm) va Xo'jayli (**1409,8** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Respublika bo‘yicha 2023- yilning yanvar-mart oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **256,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **111,3** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma‘lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo‘jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **157,2** mlrd. so‘mni (119,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **98,8** mlrd so‘mni tashkil etdi (**100,0** %).

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi** *(mlrd. so‚m)*




**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o‘sish sur’ati,** *(foizda)*



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo koʻrsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xoʻjaligida oʻz kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi oʻsish surʼati, *foizda*




**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xoʻjaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo oʻrinlari, turgʻun savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

# UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

| | Jami, mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda | Dehqon bozorlari, mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda | Chorva bozorlari, mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **256,0** | **111,3** | **157,2** | **119,9** | **98,8** | **100,0** |
| Nukus shahri | 28,0 | 114,6 | 17,2 | 123,0 | 10,8 | 103,1 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Amudaryo | 19,0 | 152,4 | 11,7 | 164,4 | 7,3 | 135,6 |
| Beruniy | 24,4 | 140,6 | 15,0 | 150,6 | 9,4 | 126,2 |
| Bo‘zatov | 4,8 | 76,1 | 2,9 | 81,3 | 1,8 | 68,2 |
| Qorao‘zak | 12,0 | 64,6 | 7,4 | 69,4 | 4,6 | 57,8 |
| Kegeyli | 13,9 | 63,5 | 8,5 | 68,1 | 5,4 | 57,3 |
| Qo‘ng‘irot | 16,0 | 116,8 | 9,9 | 126,5 | 6,2 | 105,5 |
| Qonliko‘l | 10,6 | 155,4 | 6,5 | 169,0 | 4,1 | 138,9 |
| Mo‘ynoq | 3,2 | 113,0 | 2,0 | 123,7 | 1,2 | 99,0 |
| Nukus | 13,5 | 114,5 | 8,3 | 124,1 | 5,2 | 102,3 |
| Taxiatosh | 4,0 | 53,1 | 2,5 | 57,5 | 1,6 | 47,4 |
| Taxtako‘pir | 13,4 | 131,3 | 8,2 | 142,7 | 5,2 | 117,4 |
| To‘rtko‘l | 43,5 | 133,6 | 26,7 | 144,1 | 16,8 | 119,8 |
| Xo‘jayli | 17,3 | 130,0 | 10,6 | 140,2 | 6,7 | 115,8 |
| Chimboy | 18,2 | 115,2 | 11,1 | 123,4 | 7,0 | 103,4 |
| Shumanay | 5,9 | 102,2 | 3,6 | 110,8 | 2,3 | 91,8 |
| Ellikqal’a | 8,4 | 97,3 | 5,2 | 103,8 | 3,2 | 87,0 |

* – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-mart oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **157,2** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**80,4** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

| Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari | | Mlrd. so‘m |
|---|---|---|
|  | **Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari** | **80,4** |
|  | **Non va non mahsulotlari** | **15,0** |
|  | **Don mahsulotlari** (mosh, loviya, guruch va boshqalar) | **11,9** |
|  | **Tovuq go‘shti** | **8,3** |
|  | **Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari** (yongoq, bodom, pista va boshqalar) | **5,8** |
|  | **Sut va sut mahsulotlari** (sir, brinza,…) | **9,2** |
|  | **Tuxum** | **7,7** |
|  | **Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak** | **6,1** |
|  | **Ziravorlar** | **4,3** |
|  | **Tuzlamalar** | **5,0** |
|  | **Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari** (manzarali va qishloq xo‘jaligi) | **3,5** |
| | **Nooziq-ovqat tovarlari** | **-** |

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-mart oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **98,8** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **80,5** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **15,3** mlrd. so‘mni, otlar – **2,1** mlrd. so‘mni, parrandalar – **0,9** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

| | Chorva mollari (parrandalar) | Mlrd. so‘m |
|---|---|---|
|  | 2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar | 37,1 |
|  | 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar | 19,5 |
|  | 1 yoshgacah bo‘lgan yosh mollar | 23,9 |
|  | Qo‘ylar | 10,7 |
|  | Otlar | 2,1 |
|  | Echkilar | 4,6 |
|  | Kurka, o‘rdak, g‘oz | 0,6 |
|  | Tovuqlar | 0,3 |
|  | Quyonlar | - |
|  | Qushlar | - |

2023- yil 1- aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1017** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – aprel holatiga nisbatan **1** taga oshgan va o‘sish sur’ati **100,0 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1016** tani tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,9**% ni tashkil etib, **56,6** mlrd. so‘mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **100,9**% ga o‘sdi.. Bunda savdo aylanmasining **99,7**% ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

| | Jami mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va mikrofirma-lar, mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **56,6** | **100,9** | **0,2** | **115,2** | **56,5** | **100,9** |
| Nukus shahri | 22,4 | 99,8 | 0,2 | 115,2 | 22,2 | 99,7 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Amudaryo | 2,6 | 100,3 | - | | 2,6 | 100,3 |
| Beruniy | 1,7 | 99,7 | - | | 1,7 | 99,7 |
| Bo‘zatov | 0,1 | 99,5 | - | | 0,1 | 99,5 |
| Qorao‘zak | 1,6 | 102,5 | - | | 1,6 | 102,5 |
| Kegeyli | 0,6 | 101,2 | - | | 0,6 | 101,2 |
| Qo‘ng‘irot | 14,2 | 103,0 | - | | 14,2 | 103,0 |
| Qonliko‘l | 0,7 | 100,1 | - | | 0,7 | 100,1 |
| Mo‘ynoq | 0,2 | 100,5 | - | | 0,2 | 100,5 |
| Nukus | 0,5 | 101,7 | - | | 0,5 | 101,7 |
| Taxiatosh | 1,4 | 101,4 | - | | 1,4 | 101,4 |
| Taxtako‘pir | 0,4 | 100,8 | - | | 0,4 | 100,8 |
| To‘rtko‘l | 3,7 | 102,3 | - | | 3,7 | 102,3 |
| Xo‘jayli | 3,3 | 99,8 | - | | 3,3 | 99,8 |
| Chimboy | 1,6 | 101,4 | - | | 1,6 | 101,4 |
| Shumanay | 0,3 | 99,4 | - | | 0,3 | 99,4 |
| Ellikqal’a | 1,4 | 100,2 | - | | 1,4 | 100,2 |

# Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- aprel holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo‘lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish)* **364,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tkan yilning mos davriga nisbatan **87,8**% ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **152,7** mlrd. so‘m (o‘sish sur’ati- **87,1**%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **212,0** mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati – **81,0** %) tashkil qildi.

**Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o‘ish sur’ati,** *foizda*






## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi



## Hududlar kesimida ma‘lumot

| | **Hajm,** **mlrd. so‘m** | **Ulushi,** *foizda* |
|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **364,7** | **100,0** |
| Nukus shahri | 237,3 | 65,1 |
| tumanlar: | | |
| Amudaryo | 0,7 | 0,2 |
| Beruniy | 93,2 | 25,6 |
| Bo‘zatov | - | - |
| Qorao‘zak | 0,3 | 0,1 |
| Kegeyli | 22,9 | 6,3 |
| Qo‘ng‘irot | 0,7 | 0,2 |
| Qonliko‘l | 0,2 | 0,1 |
| Mo‘ynoq | 0,3 | 0,1 |
| Nukus | - | - |
| Taxiatosh | 1,4 | 0,4 |
| Taxtako‘pir | 0,2 | 0,1 |
| To‘rtko‘l | 3,8 | 1,0 |
| Xo‘jayli | 0,9 | 0,3 |
| Chimboy | 0,7 | 0,2 |
| Shumanay | 0,0 | 0,0 |
| Ellikqal’a | 1,9 | 0,5 |

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Nukus shahri (**237,3** mlrd. so‘m), Beruniy (**93,2** mlrd. so‘m) va Kegeyli (**22,9** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi,** *mlrd. so‘mda*




Respublika bo‘yicha 2023- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **472,5** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **101,1**% ni tashkil qildi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **398,0** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **93,5** %ga to‘g‘ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **84,2** % ni tashkil qildi.

# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘sish sur’atlariga eng yirik korxonalar Taxiatosh tumanida (170,5%) va Nukus shahrida (207,7%) kuzatildi.

2023- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni **1014** tani tashkil etib, 2022- yil 1- aprel holatiga nisbatan **4** taga kamaygan, o‘sish sur’ati **99,6 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni **7** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1007** tani tashkil qildi.

| | Jami mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va mikrofirma-lar, mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | **472,5** | **101,1** | **74,5** | **178,7** | **398,0** | **93,5** |
| Nukus shahri | 205,0 | 98,4 | 3,5 | 207,7 | 201,6 | 97,5 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Amudaryo | 11,1 | 97,3 | - | | 11,1 | 97,3 |
| Beruniy | 23,6 | 89,7 | 2,8 | | 20,8 | 79,1 |
| Bo‘zatov | 1,0 | 88,8 | - | | 1,0 | 88,8 |
| Qorao‘zak | 7,4 | 98,2 | - | | 7,4 | 98,2 |
| Kegeyli | 2,6 | 304,8 | - | | 2,6 | 304,8 |
| Qo‘ng‘irot | 20,4 | 83,8 | - | | 20,4 | 83,8 |
| Qonliko‘l | 9,3 | 86,2 | - | | 9,3 | 86,2 |
| Mo‘ynoq | 5,1 | 104,2 | - | | 5,1 | 104,2 |
| Nukus | 17,3 | 84,7 | - | | 17,3 | 84,7 |
| Taxiatosh | 80,0 | 150,6 | 68,2 | 170,5 | 11,7 | 89,6 |
| Taxtako‘pir | 4,8 | 92,5 | - | | 4,8 | 92,5 |
| To‘rtko‘l | 37,9 | 91,5 | - | | 37,9 | 91,5 |
| Xo‘jayli | 13,3 | 91,3 | - | | 13,3 | 91,3 |
| Chimboy | 10,7 | 100,3 | - | | 10,7 | 100,3 |
| Shumanay | 0,5 | 93,0 | - | | 0,5 | 93,1 |
| Ellikqal’a | 22,6 | 87,4 | - | | 22,6 | 87,4 |



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**
**Tel.: 61 222-67-45**